

PISA TADQIQOTLARI DOIRASIDA O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Kamshat Baymenova

Berdaq nomidagi QDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6981473>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish mazmuni va usullari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. PISA (The Program for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturida kreativ fikrlashni baholash yo'nalishi haqida asosiy tushunchalar, baholashda e'tibor qaratiladigan muhim jihatlari va baholash yondashuvlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, PISA, baholash, yondashuvlar, qobiliyat, layoqat, tadqiqotchilik, tahlil, kreativ topshiriqlar.

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В РАМКАХ ИССЛЕДОВАНИЯ PISA

Аннотация. В данной статье представлена информация о содержании и методах формирования творческого мышления у учащихся. Программа международной оценки PISA (The Program for International Student Assessment) описывает основные концепции направления оценки творческого мышления, важные аспекты, на которых следует сосредоточиться, и подходы к оценке.

Ключевые слова: креативность, PISA, оценка, подходы, способности, компетентность, исследование, анализ, творческие задания.

FACTORS IN THE FORMATION OF PUPILS' CREATIVE THINKING IN THE FRAMEWORK OF THE PISA STUDY

Abstract. This article provides information about the content and methods of formation of creative thinking among students. The Program for International Student Assessment (PISA) describes the main concepts of the direction of creative thinking assessment, important aspects to focus on, and assessment approaches.

Keywords: creativity, PISA, assessment, approaches, abilities, competence, research, analysis, creative tasks.

KIRISH

Bugungi kunda o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash, yangi g'oyalar yaratuvchanligini shakllantirish hamda rivojlantirish davr talabidir. Chunki ijodiy fikrlash-yangi bilimlar, innovatsion g'oyalar tug'ilishining asosi hisoblanadi. Shuningdek, bugungi kun o'quvchisida kreativ fikrlash qobiliyatining shakllanishi ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Ayni damda dunyoning aksariyat davlatlarida ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga juda kata e'tibor qaratilmoqda. Haqiqatan ham bugungi kunda atrofimizni kuzatar ekanmiz, elektron xizmatlar, virtual olam, texnologiya rivoji kabi inson tasavvuri sig'maydigan hayratlanarli namunalardan yoqa ushlaymiz. Bir paytlar insonlar uchun hayratlanarli bo'lgan kitob, televizor, avtomobil kabilar ham aslida aql-idrk asosida paydo bo'lgan, albatta. Bulardan ma'lumki, shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun avvalo bu tushunchaning mazmunini bilish lozim.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Kreativ (*“create”* - inglizcha *“ijod qilish”*) - *“aqliy ijodiylik”*, *“yangi g‘oyalarni yaratuvchi”* demakdir. Kreativlik esa inglizcha *“create”*dan olingan bo‘lib, yaratish degan ma‘noni anglatadi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamidagi originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Bundan tashqari kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi.

TADQIQOT NATIJALARI

Til ta‘limida o‘quvchining kreativ fikrlashini ta‘minlash orqali yuqori saviyadagi nutqiy savodxonlik bilan bir qatorda tabiiy va aniq fanlarni oson va qulay o‘zlashtirilishiga erishamiz. PISA tadqiqotlari doirasining ham o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ham 15 yoshli o‘quvchilarning kreativ fikrlashini baholashidir. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma‘naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, o‘rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Ya‘ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so‘zlarni yodlab, grammatika qoidalarini *“suv qilib ichib yuborgan”* bo‘lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o‘ynaydi. Albert Eynshteyn *“Tasavvur - bilimdan muhim”* deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko‘pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

MUHOKAMA

Kreativ fikrlashni baholash xalqaro dasturini rivojlantirish ta‘lim siyosati va pedagogikasida ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Xalqaro PISA baholash dasturi bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlardagi kreativ fikrlash yo‘nalishining baholashi mutasaddilarga dalillarga asoslangan to‘xtamga kelishda ko‘maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bo‘lgan baholash vositasini taqdim etadi. Natijalar, shuningdek, jamiyatda ushbu muhim ko‘nikmani ta‘lim orqali rivojlantirishning ahamiyati va usullari borasidagi bahslarga sabab bo‘ladi. PISA xalqaro baholash dasturidagi ushbu faoliyat Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ijodiy fikrlashni rivojlantirish borasidagi yangi pedagogikani qo‘llab quvvatlashga qaratilgan boshqa bir loyihasi bilan bog‘liqdir.

XULOSA

Kreativ fikrlashda ta‘limning asosiy vazifasi o‘quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni shakllantirishdir.

REFERENCES

1. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta'lim. № 1 (86). - S.5
2. PISA TADQIQOTIDA KREATIV FIKRLASHNI BAHOLASH DOIRASI. «NAVRO_Z», nashriyoti. Litsenziya № AI 170. Nashriyot manzili: Toshkent.
3. Komilova, N. A. (2022, June). COMPARATIVE ANALYSIS OF LEXICAL VERBALIZERS OF THE CONCEPT “GENDER” IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 103-106).
4. Abdilkadimovna, K. N. (2022). THEORETICAL ANALYSIS OF GENDER RELATED WORDS IN ENGLISH LANGUAGE. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, 1(2), 179-182.
5. Shodiyeva, G. N. K., & Dustmatov, H. (2022). CLASSIFICATION OF WORDS IN UZBEK AND ENGLISH: IN THE EXAMPLE OF VERBS. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(4), 234-237.
6. qizi Shodieva, G. N., & Dusmatov, H. H. (2022, July). RINCPLES OF DIVISION OF WORD CATAGORIES IN UZBEK LANGUAGE. In *INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 11, pp. 38-43).
7. Tukhtaeva, K., & Razzakova, N. (2021). The role of cognitive linguistic approach in implementing idioms into english language teaching process. *SOUTH ASIAN JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT RESEARCH*, 11(6), 10-17.
8. Tukhtaeva, K., & Khasanova, G. (2021). Teaching idioms with a color component reflecting a person's internal world. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(6), 162-169.
9. Satvoldiyevna, U. D. (2021). Axiological Characteristics Of English, Uzbek And Russian Phraseological Units. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(06), 40-45.
10. Sotvoldiyevna, U. D. (2022). Political Euphemisms in English and Uzbek Languages (A Comparative Analysis). *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 9, 92-96.
11. Usmonova, D. (2022). PRINCIPLES OF DIVISION OF WORD CATAGORIES IN UZBEK LANGUAGE. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, 1(2), 60-65.
12. Shodieva, G. N. K. (2022). CLASSIFICATION OF WORDS IN UZBEK AND ENGLISH: IN THE EXAMPLE OF VERBS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2), 1128-1131.